



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING GLOBAL
MASALALARI: MUAMMO,
TADQIQOT, NAZARIYA, AMALIYOT**
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2025-yil 20-noyabr, Navoiy shahri

**GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION:
PROBLEM, RESEARCH, THEORY, PRACTICE**
oInternational scientific and practical conference
November 20, 2025, Navoi city

**ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАЧАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА,
ИССЛЕДОВАНИЕ, ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА**
Международная научно-практическая
конференция 20 ноября 2025 года, г.Навои



Navoiy-2025

Bu yerda kiritma — "(go‘yo faqat ulargina yig‘laydi)" orqali shoironing ijtimoiy tanqidi, ayol taqdiriga bo‘lgan achinish, dard bilan aytilgan istehzo seziladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Halima Ahmedovaning she‘riyatida kiritmalarning qo‘llanilishi tasodifiy emas. Ular shoironing poetik nutqini jonlantiradi, subyektiv kayfiyatini oshkor qiladi, emotsional fonni kuchaytiradi va o‘quvchini ichki monologga sherik qiladi. Kiritmalar orqali Halima Ahmedova zamonaviy ayolning ichki kechinmalari, ichki ziddiyatlari va bardoshini o‘ziga xos poetik ifoda topgan.

Shunday qilib, Halima Ahmedova she‘riyatida kiritmalar nafaqat stilistik vosita, balki mazmunning chuqurlashuvi, ohangning boyishi va g‘oyaning aniqlashuvi uchun xizmat qiluvchi muhim elementdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoyetikasi. T.: Fan, 2008
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.: 1989.
5. Abdulla Ulug‘ov "Hur gulsan, hayot" Davron.uz
6. Jumaboyeva J. Lirik she‘rda ruhiyat qudrati. O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. № 2. –B. 41-44.
7. Jumaboyeva J. Lirik qahramon ruhiy dunyosining teran manzaralari. O‘zbek tili va adabiyoti. 1998.№6.-B. 16-20.

MAQOLLARNI ADABIYOTSHUNOSLIK ASPEKTIDA TADQIQ ETISH

Kodirova Saodat Abdiraximovna-
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası

f.f.f.d.(PhD), dotsenti

Navoiy davlat universiteti Navoiy shahri, O‘zbekiston

saodat.abduraximovna@gmail.com

Annotatsiya: Maqollar xalq og‘zaki adabiyotining qadimiy janrlaridan biri sifatida turli fanlar – tilshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya kabi fanlarda keng tadqiq etilgan. Har bir yondashuv maqollarning ma‘no qatlamlariga turli nuqtai nazardan yondashadi, ularning serqirra mohiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Tipologik, tematik-kompozitsion, intertekstual, stilistik.

Abstract. Proverbs, as one of the ancient and meaningful genres of folk oral literature, have been widely studied in various disciplines - linguistics, folklore, cultural studies, philosophy and psychology. Each approach approaches the layers of meaning of proverbs from different points of view, illuminating their multifaceted essence.

Key words: Typological, thematic-compositional, intertextual, stylistic.

Аннотация. Пословицы, как один из древнейших и содержательных жанров устного народного творчества, широко изучаются в различных дисциплинах – лингвистике, фольклористике, культурологии, философии и психологии. Каждый подход рассматривает смысловые пласты пословиц с разных точек зрения, раскрывая их многогранную сущность.

Ключевые слова: Типологический, тематико-композиционный, интертекстуальный, стилистический.

Maqollar xalq ijodining badiiy-falsafiy tafakkurini mujassam etuvchi birliklardan biri sifatida nafaqat folklor, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladigan muhim paremiologik birliklardir. Ularda milliy dunyoqarash, poetik obrazlar, axloqiy konsepsiyalar, vaqt va makon tuyg‘ulari, falsafiy qarashlar, estetik ideallar mujassamlashgan. Shu sababli maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda bir necha nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy-estetik yondashuv. Bu yondashuvda maqollar badiiy matn sifatida, ya'ni obrazlilik, ifodaviylik, allegoriya va metaforalar tizimi orqali tahlil etiladi. Maqollarning ko'pchiligi qisqaligiga qaramay, katta ma'no yuki, kutilmagan obrazli parallellik va estetik ta'sir qobiliyatiga ega⁵⁰. Misol: "Til – kalit, og'iz – qulf" – bu yerda obrazli qarama-qarshilik orqali so'zning mas'uliyati falsafiy tarzda ifoda etilgan. Bunday yondashuvda maqollar badiiy ijodga ta'sir etuvchi manba sifatida o'rganiladi; estetik funksiya va obrazlilik tahlil qilinadi; qisqa shaklda teran ma'no mujassamligini ko'rsatadi. Baddiylik mezonlari asosidagi tahlil haqida U.To'ychiyev⁵¹, B.Sarimsoqov⁵² hamda A.Rasulov⁵³ning tadqiqotlaridan atroflicha ma'lumot berilgan.

Janriy va uslubiy yondashuv. Adabiyotshunoslikda maqollar aforizm, hikmat, epigramma, nutq birliklari kabi shakllar bilan qiyosiy tahlil etiladi. Bu yondashuv maqollarning janrlararo aloqalari, uslubiy xususiyatlari va badiiy uslub nuqtayi nazaridan tahlil qilinishini ta'minlaydi. Misol: "Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi" – bu maqolda aforistik uslub, kesatma intonatsiya, va mukammal tuzilish ko'rinadi.

Intertekstual yondashuv. Maqollar adabiy matnlarda sitata, allyuziya, intertekst, simvol sifatida faol ishlatiladi. Intertekstual yondashuv bunday birliklarning adabiy asardagi funksiyasi, poetik vazifasi va ma'no yaratishdagi roliga e'tibor qaratadi⁵⁴. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida insonning doimo harakatda bo'lishi lozimligi uqtirilgan maqol ishtirok etgan: "Yurgan daryo, o'lturgan bo'ryo emish" dedi Akram hoji (21-b). Bu maqol intertekst sifatida qahramon fikrini ifoda etishda xizmat qiladi. Bunday yondashuning ahamiyati shundaki, maqollar matn ichida semiotik ishora sifatida ishlatilishi; qahramonning nutqiy portreti yaratilishi; maqolning adabiy asarda g'oyaviy-estetik funksiyani bajarishi tahlil qilinadi.

Ma'naviy-falsafiy yondashuv. Adabiy asarlarda ishlatiladigan maqollar orqali xalqning falsafiy dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari ochib beriladi. Bu yondashuv maqollarni adabiy obrazlar, muallif nutqi va mualliflik konsepsiyasi orqali tahlil qiladi⁵⁵.

Mavzuviy-kompozitsion yondashuv. Bu yondashuv maqollarning adabiy matndagi syujet qurilishi, qahramon xarakteri, janr stilistikasi bilan bog'liq holda tahlil etilishini nazarda tutadi. Xususan, epik, dramatik va lirik asarlarda maqollar qahramon fe'l-atvorini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish ularning badiiy, intertekstual, estetik, ma'naviy va uslubiy funksiyalarini ochib berishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar orqali paremiyalar adabiy matndagi semantik markaz, avtorlik pozitsiyasi, milliy tafakkurning poetik shakllanishi kabi jarayonlarni tadqiq etish mumkin. Bu esa maqollarni faqat folklor yoki til birligi sifatida emas, balki badiiy tafakkurning tipik ifodasi sifatida qabul qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожинной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.
2. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.
3. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.
4. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.

50 Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожинной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.

51 Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.

52 Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.

53 Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.

54 Do'smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari> (дата обращения: 15.07.2025).

55 Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O'quv qo'llanma. B.M.Ochilova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: "Ijod-print", 2019. – 160 b.

5. Do'smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari> (дата обращения: 15.07.2025).

6. Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O'quv qo'llanma. B.M.Ochilova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: "Ijod-print", 2019. – 160 b.

METHODS FOR SOLVING PROBLEMS THAT WE CAME ACROSS WHILE READING BOOKS

Rajabova Afruza Saloxiddinovna

Student of the Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Scientific supervisor: prof. D.I.Kamalova

Annotation: The article highlights the benefits of reading, such as increasing communication, reducing stress and boosting motivation. It also discusses common reading challenges and offer simple tips for improve your focus. Furthermore, the article encourages readers to make reading a regular habit for personal growth and to help them avoid common mistakes they may encounter.

Key words: reading books, issue, readers, mistakes, students, skills, methods, benefits, information, motivation, meditation, timer.

Аннотация: В статье подчеркиваются преимущества чтения, такие как улучшение коммуникации, снижение стресса и повышение мотивации. Также рассматриваются распространённые трудности, возникающие при чтении, и предлагаются простые советы для улучшения концентрации. Кроме того, статья призывает читателей сделать чтение регулярной привычкой для личностного роста и чтобы избежать распространённых ошибок, с которыми они могут столкнуться.

Ключевые слова: читать книги, проблемы, читатели, ошибки, ученики, методы, польза, информация, мотивация, медитация, таймер.

Annotatsiya: Maqolada o'qishning afzalliklari - masalan, muloqotni yaxshilash, stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish - ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, o'qish jarayonida uchraydigan keng tarqalgan qiyinchiliklar muhokama qilinadi va diqqatni yaxshilash uchun oddiy maslahatlar beriladi. Bundan tashqari, maqola o'quvchilarga o'qishni shaxsiy rivojlanish uchun muntazam odatga aylantirishni va uchrashi mumkin bo'lgan umumiy xatolardan qochishni tavsiya qiladi.

Kalit so'zlar: kitob o'qish, muammo, kitobxonlar, xatolar, o'quvchilar, metodlar, usullar, ma'lumotlar, motivatsiya, meditatsiya, taymer.

In these days, it is not a secret that the world can be conquered through the science. So only way to gain a deep understanding of science is reading a book.

Nowadays, in our society great attention is paid to reading books. Young people's interest in reading books is increasing day by day. We all know that reading books is really useful, because while we are reading, we spiritual awakening and gain knowledge, interesting facts and informations.

A.H. Baxmanyor once stated: "Look for a people whose a conversation feels like reading a book, and look for a book that feels like a conversation with philosopher." This quote has really deep meaning, which helps you become more successful in your life by avoiding unnecessary people and books.

That is not secret, that a reader lives in two different worlds: the real world around us and the imaginative world within the book. Every book that I read feels like i am living on someone's life, the worst part of it, it is finishing this life by not wanting it. It is really hard to describe the feeling that I got through while I read books. So, I want and wish reading books become everyone's hobby, cause there are a lot of advantages of reading books.

Let me list top 3 benefits of reading books.

1) **Improving your conversation skills.**

MAKTAB TEXNOLOGIYA FANIDAGI BUYUMLARGA ISHLOV BERISH MAVZUSINI O'QITISHDA MATEMATIKA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH Cho'liyev E.A.-Navoiy innovatsiyalar universiteti, prof.v.b. Yorqulova M.Sh. Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 78-maktab texnologiya fani o'qituvchisi.....	343
HALIMA AHMEDOVA ASARLARIDA KIRITMALARNING QO'LLANILISHI TARTIBI Abdullayev Umidjon-Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti, Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi	340
MAQOLLARNI ADABIYOTSHUNOSLIK ASPEKTIDA TADQIQ ETISH Kodirova Saodat Abdiraximovna-Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası f.f.f.d.(PhD), dotsenti Navoiy davlat universiteti Navoiy shahri, O'zbekiston	346
METHODS FOR SOLVING PROBLEMS THAT WE CAME ACROSS WHILE READING BOOKS Rajabova Afruza Saloxiddinovna-Student of the Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Scientific supervisor: prof. D.I.Kamalova.....	348
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VA GLOBAL INTEGRATSIYANING AHAMIYATI Shavkatova Shaxrizoda Shavkatovna - Navoiy davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktorant.....	350
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ Ирназарова Гулрух Азаматовна- Учитель средней общеобразовательной школы №6 города Навои.....	352
JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Pirimova Nargiza Adilovna- NavDU Jismoniy madaniyat kafedrası v.b dotsenti	355
NUTQ ODOBINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O'RNI Jo'rayeva Muqaddas Said qizi- Navoiy davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi.....	357
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH Buronova Dilafruz Tuxtayevna- Ilmiy rahbar: Quدراتova Gulzoda Mahmudovna-Osiyo xalqaro universiteti	360
MATEMATIKA O'QITISH METODIKASINI INKLYUZIV TA'LIMDA RIVOJLANTIRISH Omonboyeva Meruyert Erkin qizi- Navoiy State University Teacher of the Department of Primary Education	363
TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI Alimov Alisher Yarashevich- katta o'qituvchi, Navoiy davlat universiteti.....	366